



MAKTAB DASRLARIDA UYADOSH SO'ZLAR MAVZUSINI O'RGATISH.

Ozoda Qarshiboyeva Qurbonboyevna.

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
Universiteti 3- kurs talabasi .*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfda uyadosh so'zlar berilgan. Lekin uyadosh so'zlar haqida boshlang'ich sinflarda ma'lumot berilmagani uchun bu mavzu o'quvchilarga ozroq qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Chunki ular uchun bu yangi tushinchadir.*

Bu mavzu o'quvchilarning bayoni, metodi orqali olib boriladi. Chunki o'quvchilar bunday tushinchaga quyi sinflarda ega bo'lmaydi. Shuning uchun o'qutuvchi o'quvchilarga sodda, aniq, rovon qilib batafsil tushintirish kerak. Uyadosh so'zlar bir turdagi narsa, belgi, voqea-hodisa, harakat ma'nolarini ifodalaydigan, bir mazmuniy guruhga mansub bo'lgan so'zlardir. Masalan: Kiyimlar: ko'ylak, shim, kastum, do'ppi.

Ruhiy holatni bildiruvchi harakat turlari : yig'lamoq, kulmoq, xo'rsinmoq.

Uyadosh so'zlar ham xuddi ma'nodosh so'zlar kabi umumlashtiruvchi so'zlarga ega. Faqat bunda stilistik bo'yoqdorlik e'tiborga olinmaydi, balki bir xil tushinchani ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan misoldagi buyumlar kiyim so'ziga e'tibor bersak, hamma buyumlarni anglatuvchi ma'no xususiyatiga ega. Demak, ularda umumiy ma'no tashuvchi so'zlar o'quvchilarni diqqat markazida bo'lishi kerak. Bir mazmuniy uyaga mansub bo'lgan so'zlar uyadosh so'zlar deyiladi.

Ushbu maqola shu haqida.

Kalit so'zlar: *uyadosh so'zlar, leksika, leksikalogiya, bir mazmuniy guruh, xotirada oson saqlanadi, stilistik bo'yoqdorlik.*



Kirish. Tilimizdagi barcha soʻzlar ongimizda maʼlum mazmuniy uyalarga birlashgan holda saqlanadi. Bu esa soʻzlarning xotirada oson saqlash va nutq jarayonida oson foydalanish imkonini beradi. Shundan soʻng oʻquvchilar mavzuni qay darajada tushingan-tushinmaganini bilish maqsadida bir qancha topshiriqlar ham beramiz. Buning uchun, eng avvalo, “aqliy hujum” metodini qoʻllagan holda, oʻquvchilarga bir qancha savollar bilan murojat qilamiz.

Quyidagi metodlardan foydalanib ham mavzuni oʻquvchilarga tushinarli qilib yoritib bersak maqsadga muvofiq boʻladi.

Ishda qiyosiy-chogʻishtirma, blits-soʻrov, zinama-zina, eslab qol, kliestr, eng yaxshi savol, hot cheyr metodlardan foydalanish.

Natijalar. Soʻraladigan oʻquvchilarni emas, shunchaki emas balki, maʼlum bir maqsad bilan tanlash lozim. Deylik, iqtidorli oʻquvchilardan ularni yanada hushyorlikka chaqirish uchun, yaxshi oʻzlashtira olmaydiganlardan esa mavzuni qay darajada tushinganliklarini aniq maqsadida, tartibsiz oʻquvchilardan ularni darsga jalb qilish uchun soʻrash mumkin. Shunga qarab bugungi darsni qanday olib borishimiz haqida tasavvurga ega boʻlamiz. Shu bilan bir qatorda oʻtgan mavzuni bugungi mavzuga bogʻlash orqali tizimliva izchil ish olib borishimiz. Demak, oʻquvchilarga quyidagi savollar orqali murojaat qilishimiz mumkin.

Savollar: 1. Oʻqituvchi: Shakildosh soʻzlarni yana qanday nomlash mumkin?

Oʻquuvchi: Omonim soʻzlar.

2. Oʻqituvchi: Tut daraxtining koʻzi aniq koʻrinib turadi. Ushbu gapda qanday koʻp maʼnoli yoki omonim soʻzlar ishtirok etgan? Oʻquvchi: Koʻp maʼnoli omonim soʻzlar ishtirok etyabdi.



3. O'qituvchi: Ko'p ma'noli va omonim so'zlarning qanday farqi bor?
O'quvchi: Omonim so'zlar bir necha so'z turkumi doirasida ko'p ma'noli so'zlar esa bir so'z turkumi doirasida bo'ladi.

4. Uyadosh so'zlar deb nimaga aytiladi? O'quvchi: Bir mazmuniy uyaga mansub bo'lgan so'zlar uyadosh so'zlar deyiladi. Aynan shu savollarni ayrim o'quvchilardan so'ramasdan butun sinfdan yozma shakilda so'rash ham mumkin. Buning uchun "Ham chaqqonmiz ham dono" ta'limiy o'yinini o'tkazamiz.

Bunday savollar soni 10ta yoki undan ham ko'proq qilib. Yopiq test shaklida olamiz. O'quvchilar savollarni o'qiydi. O'quvchilar javoblarni yozib boraverishadi. So'ng qog'ozlar yig'ib olinadi. Bu hamma o'quvchilarni qisqa vaqt icida baholash hamda o'tgan mavzu yuzasidan olingan bilimlari haqida real ma'lumotga ega bo'lishadi. Bu esa o'quvchilarda tezkorlikni, tez qabul qilish ko'nikmalarini shakillantirishda qo'l ketadi.

Demak, uyadosh so'zlar bir uyaga mansub so'zlardir.

Buni tushintirish uchun matematik formuladan foydalansak ham bo'ladi.

1. Ruchka+qalam+daftar=o'quv qurollari (uyasi)
2. Atirgul+lola+chinnigul=gullar(uyasi)
3. Qasida+g'azal+fard+ruboiy=she'riy janrlar(uyasi)
4. Saxovat+hayo+hilm+adolat=komil inson(uyasi)

Yoki mavzuni yanada kengroq tushintirish uchun quyidagi ko'rgazmali qurollardan foydalanish mumkin.

1. Plakatga chizilgan koptok, arg'imchoq, turnik, kabilarni ko'rsatib, o'quvchilardan bular nima ekanligini va bularning barchasi qaysi uyaga kirishini mumkinligini so'rash ham mumkin.



Ona tili darslarida uyadosh so'zlar ustida ishlash, o'quvchi so'z zaxirasini boyitish, ijodiy tafakkurini kengaytirish muayyan yo'nalishda izlanish va kashfiyot qilishga yo'l ochib berish bilan bir qatorda o'quvchi ongida bir uya bir turga bir guruhga mansub so'zlar majmuasi va ularni ajratib alohidalab leksil-semantik qurshov haqida ilk nazariy tushinchalar hosil qiladi.

Bilimlarni mustahkamlash uchun "Bugungi dasrning eng faol guruhi va eng a'lochi o'quvchisi" o'yinini o'ynaymiz. Buning uchun eng avvalo, o'quvchilarni guruhlarga bo'lib olamiz. Tahminan 5-6 guruhlarga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Eng yaxshi guruh va eng yaxshi o'quvchini aniqlash uchun o'quvchilarni bir necha xil topshiriqlarni bajarish asnosida aniqlab olamiz .

O'quvchilarga quyidagi shartlar elon qilinadi.

1. Bliets-so'rov.
2. Zinama-zina
3. Eslabqol.
4. Klaster.
5. Eng yaxshi savol.
6. Hot cheyr.

1-bosqich: Bilets-so'rov metodi. Bu metodda o'quvchilarga savollar beriladi. Ular savollarga "ha" yoki "yo'q" deb javob berishadi. Shuning uchun savollarni umumiy so'roq gaplar ko'rinishida berish kerak. Metodning ahamiyatli tomoni shundaki, yangi mavzu o'tilayotganda shu darsning o'zidayoq o'quvchilarning mazvuni qay darajada tushinganliklarini bilish mumkin. Bu metodda savollarga javob berish o'quvchilarga unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi.

Savollar: O'qituvchi: Uyadosh so'zlat leksikalogiyada o'rganiladimi?

1-guruh a'zosi ha



O'qituvchi: Uyadosh so'zlar "qarama-qarshi" degan ma'noni bildiradimi?

2-guruh a'zosi yo'q

O'qituvchi: Atirgul, rayxon, so'zlariga yovvoyi gullar so'zi uyadosh bo'la oladimi?

3-guruh a'zosi yo'q

Bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilarning uyadoshlik hodisasi haqidagi bilimlarini oshiradi va ularda fikrlash qobiliyatini, topqirlik, zukkolik kabi xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalarni yana tekshirib ko'rish uchun quyidagi topshiriqni beramiz. Bu topshiriqni bajarishda "Zinama- zina" ta'limiy metodidan foydalanishimiz mumkin. Buning uchun avval 6 ga bo'lingan guruhlar yana 2 ga bo'linadi. Sababi bu mashg'ulot doskada bajariladi.

Dastlab doskaga birinchi uchtalik guruh a'zolari chiqishadi avvaldan uyadosh so'zlar uchun tayyorlab qo'yilgan plakatlarlarni o'z bilimlariga tayangan holda bajarishadi.

1-guruh a'zosi: Bosh kiyim uyasi:

Bosh kiyimlari: ro'mol, do'ppi, telpak, qalpoq,

2-guruh a'zosi: Oyoq kiyimlar uyasi:

Oyoq kiyimlar: Botinka, tufli, krasofka, shippak,

3-guruh a'zosi: Qishki kiyimlar:

Qishki kiyimlar: sharf, jemfer, kurtka, palto,



Xuddi shu tarzda keying guruh ham shartni bajaradi. Bunday topshiriqlar , eng avvalo, o'quvchilarni yangi mavzu yuzasidan to'liqroq ma'lumotga ega bo'lishiga hamda eng muhimi o'tilayotgan mavzu yuzasidan fundamental bilimlarni puxta egallashiga dastur amal bo'ladi.

XULOSA:

Biz shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, leksikologiyada o'rganilayotgan uyadosh so'zlar mavzusini o'rganish jarayonida tildagi barcha so'zlar ongimizda ma'lum mazmuniy uyalarga birlashish haqida ma'lumot berish bilan birgalikda bu so'zlardan nutq jarayonida ulardan unumli va o'z o'rnida foydalanish ko'nikmasini shakillantiradi va rivojlantiradi.

Uyadosh so'zlar leksikalogiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu bobda uyadoshlar haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda, uni qanday o'tishi kerak, degan savolga ham javob berishga urinib ko'rdik. Bunda bir qator usul va metodlarni ko'rsatib o'tdikki, ular mavzuni tushintirish va mustahkamlashda o'quvchilarga qo'l keladi. Biz dars o'tishda tavsiya qilgan usullar o'quvchilarning dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini orttirish bilan bir qatorda, ulardan uyadoshlar haqida bilim va ko'nikmalarni shakillanishiga yordam beradi.